

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,
O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

O'ZBEK TILINING RASMIY AXBOROT USLUBINI YARATISHDA NUTQ USLUBLARINING AHAMIYATI

Dilrabo Elova¹

Annotatsiya. Internet olami, milliy axborot-qidiruv tizimlarida (tabiiy til) o'zbek tilining o'z o'rnini bo'lishiga erishish bugungi kunda kechiktirib bo'lmaz vazifadir. Bu esa axborot-qidiruv tizimlari, jumladan, milliy korpuslarda o'zbek nutq madaniyatiga xos materiallar va ularni turli belgilar asosida qidirib topish imkoniyatini beruvchi tizimni ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada tildan amaliy foydalanish usul, vosita va materiallari, ularni tayyorlash xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. *nutq uslublari, lingvistik annotatsiyalash, rasmiy stil, badiiy stil, publisistik stil, rasmiy axborot uslubi, tabiiy tilni qayta ishlash*

Annotation. The Internet is a task that cannot be postponed to achieve the (natural language) place of the Uzbek language in the digital world and national information and search systems. This creates the need to develop information-search systems, including materials specific to Uzbek speech culture in national corpora, and a system that allows searching for them based on various symbols. This article discusses methods, tools and materials for practical use of the language, as well as their preparation.

Key words. *speech styles, linguistic annotation, formal style, artistic style, publicistic style, formal information style, natural language processing*

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir. Umummadaniyatni belgilovchi asosiy omil hisoblangan nutq madaniyati, shuningdek, nutq odobi, muomala madaniyati, ularning o'zaro munosabati kabi masalalarning o'rganilishi hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etadi [16].

Manbalarda til va nutq madaniyatiga hamda ularning o'zaro munosabatiga quyidagicha ta'rif beriladi: "til madaniyati deganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan, qo'llay oladigan darajaga keltirilganligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun-qoidalari, me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi

¹ Elova Dilrabo Qudratullayevna – *Filologiya fanlari falsafa doktori PhD, ToshDO'TAU dotsent.*

Iqtibos uchun: *Elova, D.Q. (2024) O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublari ahamiyati. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 45-55 b.*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/WLMA5471

tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovush, so'z, qo'shimcha, qolip) va ularning imkoniyatlari taraqqiyoti, bu birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qonun-qoidalarining ishlatilish darajasi tushuniladi. Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan bo'lsa, o'sha tilni madaniy til sifatida baholab bo'lmaydi. Til madaniyatining pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past bo'lishi uchun sabab bo'ladi" [16].

Mualliflar til va nutq madaniyatining o'zaro aloqasini to'g'ri ta'kidlashadi. Til madaniyatining pastligi nutq madaniyatining pastligiga olib keladi. Yuqorida ko'rsatilganlarni tahlil qilish, katta massivli faktik materiallar asosida xulosa chiqarish uchun o'zbek tilida zamonaviy axborot-qidiruv quroli va manbasining mavjud emasligini afsus bilan tan olamiz. Demak, nutq madaniyatining o'zgarishi: rivojlanishi, ortda qolishi, salbiy tomonga siljishi kabi harakatlarni kuzatish uchun katta miqdordagi nutq materialiga avtomatik ishlov berish vositasiga ehtiyoj seziladi. Bunday dasturiy vosita, tabiiyki, til korpusidir.

Hamma uchun barobar xizmat qiladigan til – aloqa-aralashuv quroli vositasida go'zal, yaxshi, namunali nutq tuzish ham, qo'pol, yoqimsiz, nojo'ya, tuturuqsiz, quruq nutq tuzish ham mumkin. Bulardan birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy nutqdir. Nutqning shunday ko'rinishlarini axborot-qidiruv tizimlarida tahlil qilish, shunday matn parchalarini avtomatik izlab topish, ular ustida turli amallar bajarish ham mumkin.

Rus olimi S.I.Ojegov yaxshi nutq haqida gapirar ekan, "yuqori darajadagi nutq, yuqori nutq madaniyati – bu o'z fikrlarini til vositalari orqali to'g'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir" [14], – deydi. Bunday qobiliyatga o'z ona tilisini chuqur sevish va hurmat qilish, uni mukammal bilish orqali erishiladi. Shuning uchun har bir kishining madaniylik darajasi, o'qib qanchalik tarbiya ko'rganligi uning yozma va og'zaki nutqidan bilinadi, nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz notiqdangina emas, balki har bir jamiyat a'zosidan talab qilinadigan ishdir.

S.Karimov nutq madaniyatining ta'limi xususida shunday yozadi: "Keyingi yillarda nutq madaniyati masalalariga nutq o'stirish, matnni tahlil qilish, badiiy asarlar tilini o'rganish ishlariga keng yo'l ochildi, o'rin berildi. Ona tili bo'yicha tuzilgan dasturlarda bog'lanishli nutqni o'stirishga har bir sinfda katta soat ajratildi; har bir til birligining nutqdagi o'rniga, o'z imkoniyatlarini namoyish qila olishiga e'tibor beriladigan bo'ldi; nutq ko'rinishlari, uslublar alohida o'rgatilmoqda; adabiy til va sheva munosabatlari, og'zaki (jonli so'zlashuv) nutqi bilan yozma nutqning, umuman adabiy tilning munosabati, umumxalq tili va adabiy til masalalari tushuntirila boshlandi; savodxonlikka, tilga, nutqqa e'tibor kuchaydi, ularni nazorat qilish boshlandi; nutq madaniyatining, til madaniyatining, savodxonlikning millat umummadaniyatining ajralmas qismi ekanligi, nihoyat, anglab yetildi; hamma oliy bilimgozlarda nutq madaniyati kursining o'qitilishi yo'lga qo'yildi: adabiyotshunoslar adabiyotning so'z san'ati ekanligini endi qaytadan chuqur his qila boshladilar, yozuvchi mahoratini ko'proq

shundan kelib chiqib baholaydigan bo'ldilar. Bu borada Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, S.Ahmad, O.Sharofutdinov kabi adiblarning maqolalari alohida e'tiborga molik bo'lmoqda".[7]

Yuqorida aytilganlar quvonarli hol, albatta. Bunday ta'lim (nutq madaniyati masalalari) uchun didaktik materiallar benihoya ko'p. Ammo biz zamonaviy axborot texnologiyalarining tabiiy tilga ishlov berish vositalarida nutq uslublari, nutq madaniyatiga oid (millionlab matn parchasiga havola bera oladigan) katta hajmdagi material misolida tahlil qilishimiz, manba yig'ishimiz mumkin. Tahlilning bunday usulini o'zbek tili korpuslarida til birliklarining uslubiy xoslanganligi haqidagi annotasiyalar hamda uslubiy tahlilni amalga oshiruvchi analizatorlar orqali amalga oshirish imkoni mavjud.

"Har bir til, – deb yozadi L.V.Shcherba, – unda gaplashadigan millatning madaniyatini o'zida aks ettiradi".[20] Olimning ushbu fikri garchi aksiomaga aylanib ulgurgan bo'lsa-da, til korpusining (tabiiy tilning oynasi sifatida) millat madaniyatini aks ettiruvchilik xususiyatini yana bir marta ta'kidlagan bo'lardik: har bir tilning korpusi uning madaniyatini o'zida aks ettiruvchi oynadir. Shu sababli til korpuslarida uslubiy xoslanganlikni ifodalovchi, nutq madaniyatiga oid faktorlarni ko'rsatuvchi birliklar bilan avtomatik ishlashni yo'lga qo'yish tabiiy tilga ishlov berishni yanada yaxshilaydigan omildir.

"Nutq madaniyati ijtimoiy fan sifatida keng ma'nodagi til tarbiyasini va ommaviy uslubiy savodlilikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi".[13] Shu nuqtai nazardan til korpusida ushbu elementlarini kiritish o'zbek tili korpusining lingvodidaktik manba sifatidagi qimmatini oshiradi. Nutq madaniyati asoslari kursining dastlabki dasturini samarqandlik tilshunoslar tuzishdi; bu sohaning birinchi o'quv qo'llanmasini yaratishga ham harakat qilishdi. Ko'rsatilgan manbalar til korpusida nutq madaniyati bo'yicha qidiruv va belgilarni ishlab chiqish uchun lingvodidaktik material vazifasini o'tashi bilan ahamiyatli.

R.Qo'ng'urov tilning lingvomadaniy, lingvoma'naviy ahamiyatini shunday baholaydi: "Kishilarning o'zaro aloqa quroli bo'lgan til anchagina qadimiy tarixga ega bo'lgani uchun so'zlovchilarning bu tilga munosabati ham ko'hna hodisalar jumlasiga kiradi. Chunki til kishilarga doimo o'zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma'naviy zaruriyat, jamoa bo'lib birlashish, kurashish quroli bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli suhbatdoshlar (oilada, jamoada, rasmiy doiralarda) nutqning bir-biri uchun tushunarli bo'lishi, kerakli o'rinlarda esa nutqning o'tkir, ta'sirchan, maqsadga muvofiq bo'lishi obyektiv zaruriyat".[12]

S. Karimov esa nutq va til madaniyatining quyidagi xulosalarini bayon etadi: "Bunga erishish uchun qadimiy davrlarda ham kishilar shubhasiz, tilning ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan va o'zaro suhbat uchun norma tusiga kirgan vositalarini to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llash qoidalariga amal qilishgan. Tabiiy ravishda, obyektiv ehtiyoj tufayli kishilarda tilga munosabatning muayyan normalari, muayyan til jamoasi amal qilishga odatlana borgan ko'nikmalar,

qoidalar yuzaga kela boshlagan. Bunday odat va ko'nikmalarning ikki muhim tomon bilan aloqador bo'lganligi ham shubhasiz:

birinchidan, tildagi tabiiy va aslida mavjud imkoniyatlarni egallash, undan o'rinli foydalanishga intilish;

ikkinchidan, so'zlovchilarning muayyan nutqiy talablar, normalarga amal qilishi.

Agarda, birinchi holatda til, uning mavjud ifoda vositalari (leksika, grammatik struktura, fonetika, talaffuz)ni egallash malaka, ko'nikmalari shakllangan bo'lsa, ikkinchi holatda nutqning til bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tomonlari ham namoyon bo'la borgan. Masalan, so'zlovchi va tinglovchining gapirganda muayyan odob-axloq normalariga rioya qilishi, ta'sirchan va chiroyli gapirishga intilishi, tilga hurmat, o'z gapi va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinli (o'z o'rnida) so'zlash, so'zlash madaniyati va tinglash madaniyati, suhbat madaniyati, munozara madaniyati, tilga e'tibor va ehtiyotkorlik va b. Keltirilgan talablar asosida qadimiy davrlarda yashagan til jamoalarida ham ma'lum nutqiy-axloqiy talablar, amal qilinishi shart deb hisoblanilgan muayyan qonun-qoidalar yuzaga kelgan va bu qoidalar til sohasidagi umumnorma, umummajburiyat darajasiga ko'tarilgan".[7]

Shu o'rinda, R. Qo'ng'urovning quyidagi fikri e'tiborimizni tortadi: "Qadimiy davr kishilarida nutq madaniyati va til egallashning ko'rinishlari tabiiy holda, tabiiy instinkt va ko'nikma tarzida, o'z-o'zidan (stixiyali ravishda) yashagan va rivojlangan; qadimiy davrlarda nutq madaniyati kurtaklari ko'proq til odobi (nutq odobi) tarzida namoyon bo'lgan. Tilni egallash, umuman tildan, nutq vositalaridan o'rinli foydalanish, tilga munosabat va hurmat qadimda, asosan, axloqiy normalar orqali boshqarilib turilgan. Bunday axloq-odob normalarining mazmuni, uning asosiy tayanchlari va talablari xalqning ijodi bo'lmish maqollarda, turkiy xalqlarining qadimiy yozma obidalarida bu masalaga oid bildirilgan fikrlarda, shuningdek, Sharq, O'rta Osiyoda yashagan donishmandlar, yozuvchi, shoir, tarixnavislarning asarlarida til, nutq, nutq odobiga oid bitilgan satrlarda yaxshi ifodalangan va bizgacha etib kelgan". Demak, o'zbek tili korpuslarida o'zbek tili nutq madaniyatini aks ettiruvchi matn fragmentlarini ajratib ko'rsatish, o'zbek tili va madaniyati, tilimizning lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsatishga yo'l ochadi. Bunday matn fragmentlari esa, olim ta'kidlaganidek, ko'rsatilgan manbalar asosida shakllantiriladi.

S.Karimov uslubiyatni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni quyidagicha izohlaydi: "Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va ishlatadilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos, uslubiy chegaralanishlarini taqozo qiladi. Til elementlarining ijtimoiy muhitda tanlab ishlatilishi va ularni


tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish zarurati stilistikada yangi sohani – funksional stilistikani vujudga”.[7]

S.Karimov funtsional uslublarni tasniflar ekan, olimlarning bunga munosabatini quyidagicha tahlil qiladi: “Ayrim tilshunoslar til uslublarini boshqa bir prinsip – emotsional-ekspressiv prinsip asosida tasnif qiladilar. Masalan, Listvinov N.G. yozadi: “So’zlardagi emotsional bo’yoqning xarakteriga bog’liq ravishda tantanali (yoki ritorik), ironiya-hazil, quruq-rasmiy, ishqiy-erkalash, betakalluflik kabi ekspressiv-emotsional uslublar farqlanadi. Ekspressiv-emotsional uslublar janr uslublariga nisbatan bo’ysungan holatda bo’ladi: mavqeiga nisbatan ular so’zlashuv-maishiy, badiiy-belletristik, publisistik uslublarga yordamchilar sifatida muvofiqlashadi”.[10]

Biz funksional uslublarni tasniflash masalasida olimlarning yakdil xulosasini atroflicha tadqiq etishimiz va til korpusida uslubiy parametrlarni ishlab chiqishda eng maqbul tasnifga asoslanishimiz lozim.

X. R. Kurbatov nutq uslublari tasnifi haqida shunday yozadi: “E. Rizel va A.Gvozdevlarda “stilistik ottenka” termini qo’llangan, biz esa uni boshqacha – nutqning ekspressiv uslubi, deb ataymiz. Bunga nutqning quyidagi ko’rinishlari mansub bo’ladi: ko’tarinki-ta’sirchan uslub, quyi uslub, do’stona erkalash uslubi, quruq-rasmiy uslub, hazil (yoki yumoristik) uslub, kulgili (satirik) uslub. Ekspressiv uslublar nutqning boshqa uslublari kabi ma’lum vaziyatlarda paydo bo’ladi va so’zlovchining (yoki yozuvchining) biron kimsaga yoki biron narsaga ijobiy, salbiy oki neytral (yoki go’yo ishtiroksiz) munosabatini ifodalaydi”.[8] Ko’rinyaptiki, X.R.Kurbatov nuqt uslublarini o’ziga xos tasniflaydi.


Manbalarda funksional uslublar soni o’ntagacha ko’rsatiladi.[23]



Bu tasniflarning ko'pchiligida asosan beshta uslub takrorlanadi: *so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub*. O'zbek tili stilistikasida ham funksional uslublar uchun ana shu tasnif asos qilib olingan.


Tasniflar borasida o'z mulohazalarini bildirgan ayrim mualliflar, masalan, M.BalaqaeV, V. BondaletoV, X. Kurbatov va A. Chijik-Poleykolar funksional uslublarni bunday tasnif qilgunga qadar, avvalo, ikkiga – *yozma (kitobiy)* va *og'zaki (so'zlashuv)* uslublarga bo'lib qarash lozim deb hisoblaydilar. Biz ham o'zbek tili korpusida nutq uslublari qidiruv oynasini dastlab ikkiga: *yozma (kitobiy)* va *og'zaki (so'zlashuv)* uslub sifatida ajratamiz va bu qidiruv tizimida quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1-oyna



Foydalanuvchi “uslubiy xoslangan so'zlar” oynasini tanlanganida, uslubning ikki ko'rinishidan birini tanlashi mumkin bo'ladi:


2-oyna:



S. Karimovning “Bunday holatda til yoki nutq uslublarini og'zaki va yozma tarzda guruhlariga ajratib qarashga ehtiyoj yo'q. Garchand bunday guruhlariga ajratish bilan kitobiy uslub doirasiga kiradigan stillar shakllanishida fikrning oldindan o'ylanib, bayonning adabiy til normasiga muvofiqlashtirilish imkoniyati mavjudligi ta'kidlansa-da, ular funksional uslublar mohiyatini ochib berishga sezilarli xizmat qila olmaydi” degan fikrlariga qo'shilmaymiz. Tabiiy tilga avtomatik ishlov berishda ma'lumotlar turining xilma-xilligi ijobiy holat. Shu sababli bu tasnifni qidiruv tizimi parametri sifatida belgilaymiz.


Quyidagi tasnifni yozma va og'zaki uslubning alohida uslubi sifatida ajratish imkoni yo'q: badiiy-belletristik (1), ijtimoiy-publisistik (matbuot) (2), ilmiy bayon (3), texnik-ishlab chiqarish (4), rasmiy-hujjat (idoraviy) (5), epistolyar (6), neytral (7), notiqlik (8), maishiy nutq (9), diniy (10). Bular orasida “maishiy nutq” uslubini kitobiy uslubga kiritib bo'lmaydi. Shu sababli bu tasnifni alohida belgilaymiz va matn metarazmetkasida shu belgilardan foydalanamiz. Qidiruv tizimida “uslubiy xoslangan so'zlar”ning ichki ko'rinishini mazkur shaklda tuzamiz:

3-oina:



N. A. Baskakovning quyidagi fikrlari nutq uslublarining yana boshqa turlari mavjud bo'lganidan dalolat beradi: "Turkiyning har bir mahalliy varianti stilistik sistemalari, birinchidan, ham prozaik, ham poetik janr tiplari va ko'rinishlarining ulkan rivoji va murakkablashishi bilan, ikkinchidan, barcha funksional uslublarning: 1) ilmiy-publisistik (tarixiy, jug'rofiy, filologik xarakterdagi prozaik va poetik traktatlar, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha prozaik hamda poetik asarlar va boshqalar); 2) badiiy (prozaik va ulkan darajadagi poetik asarlarning ko'plab poema, doston, g'azal-muhammas, soqiynoma, qit'a, ruboiy, tuyuqlar kabi har xil turlari va xillari); 3) xizmatga doir (farmonlar, Tarxon yorliqlari, nomalar, turlicha diplomatik hamda xuquqiy hujjatlar va boshqalar); 4) diniy uslub (vaqf hujjatlar, diniy-falsafiy va huquqiy asarlar, tafsirlar, imomlarning diniy murojaatlari kabi)larning ko'plab poetik va prozaik janr ko'rinishlarining shakllanishi bilan xarakterlanadi".[3]

1-chizma



Shunga ko'ra, N.A.Baskakovning tasnifiga asoslangan holda qidiruv va ekstralingvistik annotasiyalashning boshqa parametrlarini kiritish mumkin. Bu lingvistik annotasiya tizimi o'ziga xos tarzda shakllantiriladi hamda foydalanuvchi interfeysida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (qarang: 1-chizma).

S.Karimovning yozishicha, "O'zbek tilshunosligida ham olimlar funksional uslublar tasnifi bilan qiziqishgan. A. Sulaymonovning "Til stillari haqida" maqolasi – shunday dastlabki urinishlardan biri. Muallifning "Stilistikaning vazifasi u yoki bu stil/nutq formasida, ya'ni og'zaki va yozma nutqda, qanday til hodisalari ko'proq qo'llanilishini aniqlashdan iboratdir" [15]degan gaplaridan tushunish mumkinki, u til yoki nutq stillarini yozma va og'zaki-so'zlashuv stillariga ajratgan". S.Karimov nutq uslublari xususidagi tahlillarni davom ettirar ekan,

G'. Abdurahmonovning tasnifida ham ana shu fikrning yetakchi o'rin tutishini ta'kidlaydi: "Ma'lumki, nutq ikki xil (yozma va og'zaki) nutqdan iborat.

Yozma nutq 1) badiiy nutq, 2) ilmiy nutq, 3) publisistik nutq, 4) rasmiy nutq, 5) neytral nutqdan iboratdir. (Bu nutq turlari ayrim adabiyotlarda stilistik qatlamlar sifatida talqin qilinadi).


Og'zaki nutq esa turli ijtimoiy qatlamlarning nutqlaridan, turli sheva nutqlaridan tashkil topadi. Nutq stili bo'lsa, quyidagi qatlamlardan iborat bo'ladi: 1) neytral stil, 2) tantanali stil, 3) intim stil, 4) yumoristik va satirik stil, 5) rasmiy stil.

Harqalay, funksional uslublarning ko'rinishlari, miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar, bu tasniflarda ma'lum shartlilik borligini e'tirof etishimiz, ularning soni oz-ko'p bo'lishiga qaramasdan ma'lum tilning funksional imkoniyatlarini oydinlashtirishga xizmat qilayotganligini tan olishimiz o'rinli bo'ladi.

Tahlillardan funksional uslublarning miqdoriy belgilarini har bir milliy tilning o'zidan ham diaxronik, ham sinxronik planda axtarish lozim degan xulosa kelib chiqadi.

Yuqorida turli tasniflar bo'yicha lingvistik annotasiya tizimining turli ko'rinishlarini qo'llab-quvvatladi; annotasiya hamda qidiruv tizimiga olib kirdik. Keltirilgan tasniflarning har biri foydalanuvchi interfeysidagi qidiruv tizimida alohida sahifada joylashadi, natijada, hech qanday tushunmovchilikni keltirib chiqarmaydi. Annotasiyalash va ma'lumotlar bazasiga kiritishda excel ustunchalariga ketma-ketlikda kiritib ketish mumkin. Shu sababli G'.Abdurahmonov tasnifini ikkinchi sahifaga joylashtirish mumkin bo'ladi. Ushbu tasnif asosida qidiruv parametrlarini quyidagi ko'rinishda shakllantirish mumkin bo'ladi (qarang: 2-chizma).

2-chizma



Qidiruv parametrini keltirilgan tasniflarning bir nechtasi asosida shakllantirishdan maqsad, rang-baranglikni ta'minlash, turli uslubdagi matnlarni mos tasnif asosida annotasiyalash hamda zo'rma-zo'raki guruhlashtirishdan qochishdir. Bunday xulosaga kelishimizga S. Karimovning turli olimlarning fikrlariga bergan havola va quyidagi xulosalari asos bo'ldi: Funktsional uslublarning tasnifiga aloqador bo'lgan yana bir masala borki, bu ularning har bir milliy til ichidagi o'zgarishlaridir. Til birliklarining qo'llanilishini qaysi tomondan olib qaramaylik, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu funksional bo'linishlar shartlidir. Funktsional uslublar deb guruhlariga ajratilgan til elementlarining hammasi ham o'zi tegishli bo'lgan tilning tabiatiga ko'ra bir-birlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi. Adabiy til normalariga ko'ra noto'g'ri hisoblansa ham, bir uslubga oid deb hisoblangan so'z yoki birikmalar ikkinchisiga o'tib turadi. Taraqqiyot qonunlariga mos holda sharoitga, vaziyatga qarab ularning ohangdorligi, jozibasi va hatto ma'nosi ham o'zgarib boraveradi, boshqacha qilib aytganda, uning taqdirini faqat nutq jarayoni, matn hal qiladi. A. Shomaqsudov yozadi: "Ba'zi stillarning elementlari bir stildan ikkinchisiga osongina ko'chib o'tish va hatto, aralashib, chatishib ketish xususiyatiga ega. Stillar o'rtasidagi chegara ham unchalik barqaror emas, buning ustiga til stillari qiyofasining o'zi

tarixan o'zgaruvchandir. Shuning uchun tilning stilistik sistemasini o'rganish ishi unga ko'proq tarixiylik nuqtai nazaridan yondashishlikni talab qiladi".[19]

Bu borada V. A. Livshisning fikri ham e'tiborga molik: "Har bir uslubning o'ziga xos xususiyati uni boshqa uslublar bilan taqqoslaganda ochiladi. Har qaysi uslubga o'z ifoda vositalari sistemasi xos, garchi uslublar o'zaro aloqadorlikda bo'lib, til elementlari bir uslubdan ikkinchisiga o'tib tursa-da, biroq har bir uslubning til sistemasi o'z asosida buzilmas bo'lib qoladi".[11]

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilshunosligida nutq uslublari tasnifi borasidagi qarashlar atroflicha o'rganilib, ulardan o'zbek tili milliy korpusida uslubiy xoslanganlik haqidagi annotatsiyalarni shakllantirish hamda ularga asoslangan holda qidiruvda uslubiy parametrlarni ishlab chiqish o'rinli bo'ladi.

ADABIYOT:

- Musulmanova N.R.* Davlat tilida ish yuritish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmani print. 2024. – 230
- Абдурахмонов Х., Махмудов Н.* Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981, 47-б.
- Абдурахмонов Ф.* Стилистик нормалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969, № 6. – Б.51.
- Баскаков Н.А.* Структурные и функциональные стилистические модификации в современных тюркских языках. – Москва, 1975. – с. 57.
- Виноградов В.В.* Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. Сб
- Винокур Г.О.* Избранные работы по русскому языку. – Москва, 1957. – Б. 221.
- Каримов С.* Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.
- Каримов С.* Ўзбек тилининг бадиий услуби. Монография. – Самарқанд, "Зарафшон" нашриёти, 1992. – 140 б.
- Кожина М.Н.* Стилистика русского языка. – Москва, 1983, 59-с
- Курбатов Х. Р.* Татарская лингвистическая стилистика и поэтика. – Москва, 1978, с. 7.
- Қўнғуров Қ.* "Нутқ маданияти асослари" курсининг программаси. Р.. – Самарқанд, 1983.
- Қўнғуров Р. Қ., Каримов С. А., Қурбонов Т. И.* Нутқ маданияти асослари, I. (лекциялар матни). – Самарқанд, 1986. – 36-бет.
- Қўнғуров Р.* Нутқ маданияти ва услубият асослари. 1990.
- Лившиц В.А.* Практическая стилистика русского языка. – Москва, 1964, с. 7.
- Листвинов Н.Г.* Вопросы стилистики русского языка. – Москва, 1965, С. 27.
- Ожегов С.И.* Очередные вопросы культуры речи // Вопросы культуры речи, вып. 1, Москва, 1955.
- Основы культуры речи: Хрестоматия. – Москва, Высшая школа, 1984. – С. 39.
- Сулаймонов А.* Тил стиллари ҳақида // Совет мактаби, 1964, № 6. – Б. 21–23.
- Тожиев Ё., Хасанова Н., Тожиматов Х.* Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1994.

Хованская З.И. Стилистика французского языка, с. 201

Чижик-Полейко А.И. Стилистика русского языка. – Воронеж, 1962, с. 80.

Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси, I қисм, 23-б.

Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 13-б.

Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе. – В кн.: Общие вопросы методики. – Москва., 1947. – С. 53.

MUNDARIJA:

1	Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhaimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112